

20-May, 2025-yil

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING IJTIMOIIY-EMOTSIONAL RIVOJLANISHIGA OILA MUHITINING TA'SIRI

Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrası o'qituvchisi **Majidova Feruza Maxmudovna**
feruzamajidova@gmail.com

Osiyo Xalqaro Universiteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi **Sattorova Ozoda Nodirbek qizi**
ozodasattorova83@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional rivojlanish jarayoniga oila muhitining ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, farzand tarbiyasida sog'lom psixologik muhitga ega oilalarda ulg'aygan bolalarda o'z his-tuyg'ularini ifodalash, boshqalar bilan muloqotga kirishish, hamkorlikda ishlash kabi ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar ancha rivojlangan bo'ladi. Maqolada oilaviy munosabatlar, ota-ona e'tibori, mehr-muhabbat darajasi hamda tarbiya uslublarining bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, pedagoglar va otalalar uchun tavsiyalar berilgan. Ushbu izlanish boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning emotsional farovonligini ta'minlashda oila va maktab hamkorligini mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, oila muhiti, ota-ona munosabatlari, bolalar psixologiyasi, tarbiya uslublari, maktab-oila hamkorligi.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние семейного окружения на процесс социально-эмоционального развития младших школьников. Результаты исследования показывают, что дети, выросшие в семьях со здоровым психологическим климатом в детстве, будут иметь гораздо более развитые социально-эмоциональные навыки, такие как выражение своих эмоций, общение с другими, совместная работа. В статье анализируется влияние семейных отношений, родительского внимания, уровня привязанности, а также стилей воспитания на личностное развитие ребенка. Также даны рекомендации для педагогов и родителей. Это исследование направлено на укрепление сотрудничества семьи и школы в обеспечении эмоционального благополучия учащихся в процессе начального образования.

Ключевые слова: начальный класс, социально-эмоциональное развитие, семейная среда, родительские отношения, детская психология, стили воспитания, школьно-семейное сотрудничество.

Annotation: this article explores the impact of the family environment on the socio-emotional development process of Primary School students. The results of the study show that children who grow up in families with a healthy psychological environment in childbearing will have much more developed socio-emotional skills, such as expressing

their feelings, engaging in communication with others, working in cooperation. The article analyzes family relationships, parental attention, the level of affection and the influence of upbringing methods on the personal development of the child. Recommendations were also made for educators and parents. This research is aimed at strengthening family and school cooperation in ensuring the emotional well-being of students in the process of primary education.

Keywords: *primary class, socio-emotional development, family environment, parent relations, child psychology, upbringing styles, school-family cooperation.*

KIRISH

Hozirgi kunda bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishi ularning ta'limdagi muvaffaqiyati, shaxsiy va ijtimoiy moslashuvi, ruhiy salomatligi bilan bevosita bog'liq. Ayniqsa, boshlang'ich maktab davri – bu bolaning shaxsiyati, o'z-o'zini anglash va boshqalar bilan muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Bu jarayonda oila – birlamchi tarbiya va psixologik qo'llab-quvvatlash manbai sifatida asosiy o'rinda turadi. Bolalarning rivojlanishi bu eng murakkab jarayon hisoblanadi. Bola rivojlanishida turli xil omillar ishtirok etadi. Bulardan eng asosiysi muhit hisoblanadi. Muhit ham o'z o'rnida bir necha omillarni o'z ichiga oladi. Farzand – oilaning quvonchi, ota-onaning tayanchi, jamiyatning hayotbaxsh kuchi. Farzand umr mevasi, oila faxri, kelajagi baxtidir. Ammo tarbiya nihoyatda mashaqqatli ish bo'lib ota onalar bolalar tarbiyasida har doim ham istagan natijalarga erishavermaydilar. Ota-onalar bolalarni oilada faoliyatini to'g'ri tashkil qilishda avvalo oiladagi ota-ona tarbiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi zarur.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanish – bu bolaning o'z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, boshqalarning hissiyotlarini tushunish, empatiya ko'rsatish, sog'lom muloqotga kirishish, ijtimoiy me'yorlarga mos harakat qilish qobiliyatlaridir.

Oila muhiti – oilaning psixologik iqlimi, tarbiya uslubi, ota-onaning emotsional mavjudligi, oiladagi nizolar yoki birdamlik darajasi, bolaga bo'lgan e'tibor va mehr. Har bir shaxs oilada tug'ilib ijtimoiy hayotga mana shu o'z koshonani orqali kirib borar ekan, demak shaxs tarbiyasining ibtidosi deb uning ona ko'ksidalik payti, ya'ni homila payti-yu va tug'ilgandan atrof-muhitni qamrab olgan uni mana shu hayotga olib kelganoilasi va ota-onasining ilk tarbiyaviy ta'sirlarini aytish joizdir. Albatta bola boshlang'ich ijtimoiylashuvni aynan oila bag'rida oladi. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari namunasida u boshqa insonlar bilan muloqot qilishni o'rganadi, bola ularning xulqatvori va munosabatlar shakllarini anglab boradi va ushbu tushunchalar uning o'smirlik va balog'at yillarida ham saqlanib qolishi tabiiy. Inson rivojlanishi bu murakkab jarayon hisoblanadi. Inson rivojlanishi asosan tashqi va ichki kuchlar ta'siridan bo'ladi. Tashqi ta'sir omillariga tabiiy va ijtimoiy muhit kiradi. Ichki omillarga biologik va irsiy omillar kiradi. Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turdagi foydalanishadi. Bularga (o'yin, sport, mehnat va hokazo) muloqot (ota-ona, do'stlari va tengdoshlari) misol bo'ladi. Bola rivojlanishida asosiy vosita bu muhit hisoblanadi. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuyi tushuniladi. Muhit ham bir nechta turlarga bo'linadi.

- Tabiiy muhit

- Oila muhiti
- Ijtimoiy muhit

Tabiiy ya'niy geografik muhit bu insoniy hayot tarzidagi xarakteri va mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Masalan, janubda yashaydigan inson shimolda yashaydigan insondan ko'rinishi xarakteri va dunyoqarashi bilan ajralib turadi. Oila muhiti – bu muhit Inson shakllanishiga muhim ahamiyatga ega. Chunki bola ko'z ochib avvalo ota-onasini, bobo-buvisini ya'niy oila a'zolarini ko'radi. Uning jismoniy va ruhiy rivojlanish davri oila ta'sirida shakllanadi. Agar oilada islomiy muhit mavjud bo'lsa axloqi go'zal va fazilatli bo'lib ulg'ayadi. Oila- kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarsi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga oila muhitining ta'siri haqida so'z ketganda birqancha ilmiy-nazariy yondashuvlar keltiriladi:

1. U. Bronfenbrennerning Ekologik tizimlar nazariyasi: Bola ijtimoiy rivojlanishda birinchi navbatda mikro-muhit – ya'ni oilada shakllanadi.

2. E. Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasi: 6-11 yoshda bolalar “mehnatsevarlik vs. pastlik” bosqichida bo'lib, ular o'zini jamiyatga foydali his qilishni, ijtimoiy munosabatlarni o'rganishni boshlaydi. Oilaning yordami bu bosqichni muvaffaqiyatli o'tishda muhim.

3. D. Golemanning emotsional intellekt nazariyasi: Emotsional savodxonlik (o'z va boshqalar hissiyotini tushunish) muvaffaqiyatli ijtimoiy munosabatlarning asosi hisoblanadi.

Oila muhiti va hissiy rivojlanish-Bola o'zining hissiy rivojlanishini birinchi navbatda oila a'zolari bilan o'zaro munosabatlar orqali boshlaydi. Ota-ona va boshqa oila a'zolari bolaning hissiyotlarini tushunish va ularga javob berish orqali uning o'zini qanday his qilishini shakllantiradilar. Masalan, ota-ona tomonidan berilgan sevgi, e'tibor, qo'llab-quvvatlash va nazorat, bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va uning xavfsizlik hissini mustahkamlaydi. Shuningdek, bolada hissiy barqarorlik, o'zini ifoda etish va boshqalarga nisbatan empatiya rivojlanadi.

Agar oila muhitida doimiy ravishda ziddiyatlar va salbiy muomala mavjud bo'lsa, bolada hissiy noaniqlik, xavotir va stress holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu, bolaning o'zini hurmat qilishida, o'ziga bo'lgan ishonchida va boshqa insonlarga nisbatan ishonchli munosabatlarda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Oila muhiti va ijtimoiy rivojlanish-Oila, bolaning jamiyat bilan qanday munosabatda bo'lishini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Oila muhitida bola ijtimoiy qadriyatlarni o'rganadi, boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishni va ijtimoiy me'yorlarga amal qilishni o'rganadi. Ota-onalar va oiladagi boshqa a'zolar bolaning jamiyatdagi o'rni va uning boshqalar bilan muloqot qilishini belgilab beradi. Agar bola oilasida sog'lom ijtimoiy munosabatlarni kuzatsa, u o'zini jamiyatda hurmatli va faollik bilan olib boradi. O'zining ijtimoiy faolligini rivojlantiradi va boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishga qodir bo'ladi.

Oila mikromuhit sifatida bolaning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ishonch va qo'rquv, xotirjamlik va xavotirlanish, muloqotdagi samimiylilik va kirishimlilik yoki aksincha, kirisha olmaslik va sovuqlik - bu xislatlarning

20-May, 2025-yil

barini shaxs oilada egallaydi. Bu xislatlar bola maktabga chiqqunicha shakllanadi va bolaning rivojlanishiga uzoq vaqt ta'sir etadi. Xavotirlanuvchan onalarda xavotirlanuvchan bolalar shakllanadi. Chunki aynan oilada individual qobiliyatlar, shaxsiy, kasbiy qiziqishlar, axloqiy me'yorlar shakllanadi. Oila inson deb ataluvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilgunicha javobgardir. Negaki, oila omili insonga butun umri davomida ta'sir etadi. Ijtimoiy jihatdan oila inson turli ijtimoiy maqomlarni egallaydigan jamoa hisoblanadi. Axir oilaning vazifasi bolani asta-sekinlik bilan jamiyatga tayyorlashdir. Oila insonning o'z-o'zini belgilab olishiga, uning ijtimoiy-ijodiy faolligini oshirishiga yordam beradi. Ota-ona — san'atkor, bola — san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimizning azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarini, an'analari (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug', mahallaning ham ta'siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy funksiyasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzuvchilik yo'lga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan biridir.

Oilada olib boriladigan ijtimoiy ta'lim jarayoni ham ikkita asosiy yo'nalishda o'tadi. Bir tomondan, ijtimoiy tajribani egallash bolaning ota-onasi, aka-uka va opa-singillari bilan to'g'ridan-to'g'ri o'zaro munosabati jarayonida yuzaga keladi. Ikkinchi tomondan, ijtimoiylashuv boshqa oila a'zolarining bir-biri bilan ijtimoiy o'zaro ta'sirining xususiyatlarini kuzatish orqali amalga oshiriladi. Bolaga nisbatan ota-onalar xatti-harakatlarining to'rtta parametrlari o'rganilgan: nazorat, yetuklik talabi, aloqa, yaxshi niyat. **Nazorat:** ya'ni bolaning faoliyatiga ta'sir ko'rsatishga urinish. Bolaning ota-onalarning talablariga bo'ysunish darajasi aniqlash. **Yetuklikka talab:** Ota-onalar bolalarni aqliy qobiliyatlari chegarasida, yuqori ijtimoiy va hissiy darajada harakat qilishiga majburlash unga bosim o'tkazish. **Aloqa:** ota-onalar tomonidan boladan imtiyoz olish, uning fikrini yoki biror narsaga munosabatini tushuntirish uchun e'tiqodlardan foydalanish. **Yaxshi niyat:** ota-onalar bolaga qanchalik qiziqish ko'rsatish ya'ni maqtov, uning muvaffaqiyatlaridan xursandchilik, iliqlik, sevgi, g'amxo'rlik va unga mehr qo'yish kabilar. Oilada tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun ota-onalar turli tarbiya vositalaridan foydalanishadi: bolani rag'batlantirishadi, jazolashadi, uning uchun namuna bo'lishga harakat qilishadi. Do'stona munosabatda bildirilgan maqtov, befarq va sovuq ota-onalardan olingan maqtovga qaraganda ta'sirlilroqdir. Jazolash va taqiqlashga nisbatan maqtovdan aql bilan foydalanish hisobiga bolani shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir qilish mumkin. Bolani boshqa yo'l bilan amalda o'zgartirib bo'lmaganida jazolashdan ham foydalanish mumkin. Agar jazolash uchun ehtiyoj tug'ilsa, uning tarbiyaviy ta'sirini oshirish uchun iloji boricha qilgan xatti-harakati uchun jazolashga intilish kerak. Jazolash adolatli, lekin juda shafqatsiz bo'lmazligi lozim. Juda qattiq jazolash bolada qo'rquv paydo qilishi mumkin. Bolaning qilgan xatosi unga yaxshilab tushuntirilsa, jazolash samarali bo'ladi. Ko'proq jazolanadigan, baqiriladigan bolalar, ota-onadan uzoqlashadi, emotsional befarq bo'lib qoladi hamda yuqori agressivlikni namoyon etadi.

20-May, 2025-yil

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional rivojlanishida oila muhiti hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bola o'zining ilk hissiy va ijtimoiy tajribalarini aynan oilada orttiradi. Ota-onalarning mehr-oqibati, e'tibori va hissiy qo'llab-quvvatlashi bolaning o'zini qadrlash, emotsiyalarini boshqarish, tengdoshlari bilan sog'lom munosabatlar o'rnatish qobiliyatining shakllanishiga asos yaratadi. Emotsional jihatdan barqaror, tinch, mehrli oilalarda ulg'ayayotgan bolalarda quyidagi ko'nikmalar ancha yaxshi rivojlangan bo'ladi: o'z his-tuyg'ularini anglashi va ifoda eta olishi, boshqa insonlarning hissiyotlariga nisbatan empatiya ko'rsatishi, ijtimoiy me'yorlarga moslashishi va sinfda hamkorlikda ishlay olishi. Aksincha, oiladagi emotsional beparvolik, doimiy nizolar, haddan tashqari qat'iy yoki mutlaqo erkin tarbiya uslublari bolalarning ijtimoiy-emotsional salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday bolalarda xavotir, o'ziga ishonchsizlik, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy chekinish holatlari kuzatiladi, bu esa ta'lim jarayonida ham muammolarni yuzaga keltiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Z.T. Nishanova "Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya".
2. Xasanova. O U "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi "
3. G'aniyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ
4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida steam texnologiyasi asosida o'quv jarayonini tashkil etish jarayoni as abduqosimovna - innovation in the modern education system, 2023
6. Ismoilova N, Abdullayeva D. Ijtimoiy psixologiya. T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2013.